

FIRIBGARLIKNING SUB'EKTIV BELGILARI VA FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABATLARDAN FARQI

*O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi
universiteti magistratura tinglovchisi Mirzaraximov
Zohirjon Ochilovich*

Annotatsiya: maqolada firibgarlikning sub'ektiv belgilari, uning fuqarolik-huquqiy munosabatlardan farqli jihatlari va uni bartaraf etish yo'llari haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Jinoyat kodeksi, qonun, firibgarlik, tushunchalar, profilaktik metodlar, jinoyat sub'ekti.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 17-moddasida jinoyat sub'ekti haqida so'z yuritilgan bo'lib, jinoyat sodir etgunga qadar o'n olti yoshga to'lgan, aqli raso jismoniy shaxslar javobgarlikka tortiladilar.

Firibgarlik jinoyati uchun javobgarlikka tortish uchun yuqorida nazarda tutilgan jinoyatning belgilari mavjud bo'lishi kerak.

Bundan tashqari, umumiy belgilar bilan bir qatorda jinoyat sub'ekti hisoblangan ayrim shaxslarda maxsus belgilar ham bo'lishi mumkin. (*xavfli retsidivist, o'ta xavfli retsidivist, mansabdor shaxs*)

Jinoyat tarkibining sub'ektiv tomoni jinoiy qilmishning ichki tomoni bo'lib, shaxsning o'zi sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmish va uning oqibatlariga bo'lgan ruhiy munosabatini ko'rsatadi. Bunda, aybidan tashqari jinoyatning sub'ektiv tomonini tasniflovchi motiv va maqsad ham mavjud bo'ladi.

Ma'lumki, qasd tushunchasiga ta'rif O'zbekiston Respublikasi JKning 21-moddasida berilgan bo'lib, qasd ikki turdan, ya'ni to'g'ri va egri qasddan iborat.

Firibgarlik jinoyati faqat to'g'ri qasddan qilinadigan jinoyatlar turkumiga kiradi, bunda aybdor o'z qilmishining ijtimoiy xavfli oqibatlariga ko'zi etadi va shunday oqibat yuz berishini istaydi. Sub'ektiv tomondan ushbu jinoyat faqat qasddan va g'arazli maqsad bilan sodir etiladi.

Aybdor o'zganing mulkini qo'lga kiritish maqsadida jabrlanuvchini chalg'itayotganligini yoki bila turib ishonchini suiiste'mol qilayotganligini anglab etadi va buning sodir etilishini xoxlaydi. Shuningdek, ushbu jinoiy qilmishni aybdor mulkiy foyda olish va boyib ketish maqsadida sodir etadi. G'araz maqsadning mavjudligi firibgarlikning zaruriy elementi hisoblanadi.

Bundan kelib chiqadiki, firibgarlik jinoyatining motivi g'arazlik bo'lsa, maqsadi o'zganing mulkiga g'ayriqonuniy ravishda ega bo'lishdan iboratdir. Bunda, agar qilmishda g'arazlik maqsadi bo'lmasa qilmishni firibgarlik deb kvalifikatsiya qilish mumkin bo'lmaydi.

Jinoyat kodeksining 168-moddasi 5-qismida rag'batlantiruvchi norma nazarda tutilgan bo'lib, unga ko'ra, agar ayblanuvchi etkazilgan moddiy zararining o'rnini qoplagan taqdirda, ozodlikni cheklash hamda ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazolar qo'llanilmaydi.

Bunda, moddiy zarar qancha miqdorda qoplanishi lozimligi ko'rsatilmagan, biroq ushbu norma mohiyatidan moddiy zarar to'la hajmda qoplanishini tushunish mumkin.

Oliy sud Plenumining 2017 yil 11 oktyabrdagi 35-son qarorining 8 va 9-bandlariga muvofiq, agar shaxs o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini uni ijro etish jarayonida ayrim ob'ektiv sabablarga ko'ra bajara olmasa yoki o'zganing mulkini egallashga nisbatan qasd mavjudligini isbotlashning imkoni bo'lmasa, bunday holatlar fuqarolik-huquqiy munosabatlardan kelib chiqqan nizo sifatida baholanib, fuqarolik, iqtisodiy sud ishi yurituv tartibida hal etilishi, qonun talablariga muvofiq tuzilgan bitimlar, shartnomalarga asoslangan fuqarolik-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarmaslik ham, bunday holda o'zgalar mulkini egallashda huquqqa xiloflik belgisi bo'lmaganligi tufayli firibgarlik deb baholanishi mumkin emasligi nazarda tutilgan.

Yuridik adabiyotlarda qayd etilishicha, firibgarlik holatida, shaxs mol-mulkka yoki moddiy boylikka egalik qilishni xohlaydi, shartnoma faqat shaxsning jinoiy qilmishi uchun niqob bo'lib xizmat qiladi. Fuqarolik-huquqiy munosabatlarning normal holatida, inson haqiqatdan ham shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishni maqsad qiladi.

YUqorida ta'kidlanganidek, firibgarlikning fuqarolik-huquqiy munosabatlardan ajralib turadigan asosiy xususiyati aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilishning mavjudligidir.

Ayrim tadqiqotchilar aldash fakti, ya'ni motiv va maqsad fuqarolik-huquqiy munosabatlarga kirishishdan oldin paydo bo'lishi kerakligi, faqat shu holatda firibgarlik borligi haqida gapirish mumkinligi haqida ta'kidlashsa, boshqa tadqiqotchilar esa, motiv va maqsad fuqarolik-huquqiy munosabatlarga kirishishdan oldin yoki bunday munosabatlarga kirishish paytida paydo bo'lishi mumkinligi haqida ta'kidlashadi.

Milliy va xorijiy davlatlarda huquqni qo'llash amaliyoti hamda tadqiqotchi olimlarning firibgarlik jinoyatining fuqarolik-huquqiy munosabatlardan farqlanishiga oid izlanishlari natijalarini umumlashtirgan holda quyidagi belgilarni ajratishimiz mumkin:

a) mavjud majburiyatlarni bajarishning ob'ektiv mumkin emasligi oldindan ma'lum bo'lgan holatlar (*misol uchun, mavjud bo'lmagan tovar-moddiy boyliklarni sotish, internet tarmoqlari orqali ko'proq uchramoqda*);

b) mulkni yoki pulni olganligini inkor etib qaytarib berishni rad etish (*agar ushbu holatlar isbotlangan bo'lsa*) firibgarlikning bilvosita dalilidir;

v) fuqarolik-huquqiy munosabatlariga kirish uchun bila turib soxta hujjatlarni taqdim etish;

g) bir xil turdagi majburiyatlarni bajarmaslikning ko'pligi;

d) shartnoma bo'yicha olingan pul mablag'laridan maqsadsiz foydalanish;

e) shartnoma bo'yicha majburiyatlarni qisman bajarish bo'yicha harakatlar firibgarlik uchun javobgarlikdan ozod qilinmaydi, ammo isbotlashni qiyinlashtiradi. Bunda, majburiyatlarni qisman bajarilishi jinoiy qilmishni yashirishga qaratilgan niqob bo'lishi mumkin;

j) soxta tovarlarni qasddan sotish firibgarlik sifatida kvalifikatsiya qilinishi mumkin. Bunda, sotuvchiga soxta tovarlar sotganligi ma'lum bo'lishi, biroq u bu haqiqatni ataylab yashirgan hamda tovarlarning haqiqiylikligini ma'lum qilinganligini isbotlash lozim;

z) ayrim hollarda narsaning kamchiliklarini yashirish ham firibgarlik sifatida baholanishi mumkin (*misol uchun, ta'mirlangan avtotransport vositasini yangi avtomobil deb sotish*).

Shu bilan birga, aybdor tomonning keyingi xatti-harakatlari. Ya'ni, agar u yashirinmasa, ko'rsatuv va tushuntirishlar bersa, o'zini munosabatlarning umumiy qabul qilingan tartibda tutsa, ushbu shaxsni firibgarlik bo'yicha javobgarlikka tortish imkoniyati kamayadi.

Bunda, shaxs muloqotdan qochsa, yashirinsa, huquqiy munosabatlar mavjudligini tan olishdan bosh tortsa, bu uning harakatlarida jinoyat alomatlarini ko'rsatishi mumkin.

Jinoyat protsessining dastlabki bosqichi, ya'ni jinoyat ishini qo'zg'atish alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Samarali, ilmiy asoslangan faoliyat jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichida tergovchi va surishtiruvchilar uchun shaxslarni qonuniy va asosli jinoiy javobgarlikka tortish, majburlov choralarini to'g'ri qo'llash, odil sudlovni amalga oshirishning asosiy me'zonlaridan hisoblanadi.

Jinoyat ishini qo'zg'atish Jinoyat-protsessual kodeksining 322-moddasida nazarda tutilgan sabablar va asoslar mavjud bo'lgan taqdirdagina mumkin.

Shunga o'xshash norma ilg'or xorijiy davlatlar, xususan Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston Respublikasi, Belarus, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya va Gruziya kabi davlatlarda mavjud.

Bundan tashqari, tahlillar natijasiga ko'ra firibgarlik uchun jinoyat ishini qo'zg'atish masalasini ko'rib chiqishda ayrim xususiyatlar aniqlandi.

Jumladan, Buyuk Britaniyada[9] mazkur toifadagi ishlar bo'yicha har bir holatda aybdorning xatti-harakati nohalol bo'lishi kerakligi, uning maqsadi foyda olish, o'zga shaxsga zarar etkazish, nobud bo'lish yoki shikast etkazish xavfini keltirib chiqarishligi nuqtai nazaridan o'rganiladi.

Bunda, asosiy e'tibor aybdorning ma'lumotlarni oshkor qilish bo'yicha majburiyati, ushbu majburiyatlarni yuzaga keltirgan munosabatlar hamda aybdor tomonidan oshkor qilingan ma'lumotlarga qaratiladi. O'rganishlar natijadan kelib chiqib, holat bo'yicha jinoyat ishi qo'zg'atish masalasi hal etiladi.

Bundan tashqari, ayrim tadqiqotchilar fikriga ko'ra, shaxsning harakatlarida firibgarlik jinoyati alomatlari mavjud yoki bunday alomatlar mavjud bo'lmasa ham, kelib tushgan ma'lumotlar bo'yicha majburiy tartibda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirish lozim. Jinoyat tarkibi aniqlanganda zudlik bilan jinoyat ishini qo'zg'atish masalasini hal etish kerak.

Qayd etib o'tilgan masalalar hamda firibgarlik jinoyatining global miqyosda keng rivojlanib borishi, qonunchilikni va mavjud amaliyotni takomillashtirishni taqazo etmoqda.

Xususan, firibgarlik jinoyatini fuqarolik-huquqiy munosabatlardan farqli jihatlarini inobatga olgan holda firibgarlik jinoyati tushunchasini batafsil ifoda etish, sud amaliyotini yaxshilash hamda firibgarlikni oldini olish maqsadida Oliy sud Plenumining "Firibgarlikka oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorini tubdan qayta ko'rib chiqish hamda bugungi kun talabidan kelib chiqil takomillashtirish, shuningdek kriminologik va viktimologik profilaktika choralari ta'sirchanligini ta'minlash maqsadida huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan mahallalarda aholi bilan ochiq muloqotlarni tizimli ravishda tashkil qilish ko'lamini kengaytirish lozim.

Adabiyotlar:

- 1.И. Исмаилов, Д. М. Миразов, Ж. С. Мухторов ва бошқ. Ҳуқуқбузарликларнинг сабаб ва шароитларини аниқлаш, таҳлил қилиш ва бартараф этиш: Ўқув қўлланма, Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2017. Б 5.
- 2.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида» ги ПФ-4947-сонли Фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2017. № 6. – 70-м. // URL: <http://www.lex.uz>
3. Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси Илмий-амалий тадқиқотлар маркази маълумоти